

NUTQ BUZILISHLARI ETIOLOGIYASI

Baxriddinova O'g'iloy Abiyirqul qizi

Ismoilova Manzura Mamadiyor qizi

O'ng'arova Surayyo Abdulhamid qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

Maxsus pedagogika: Logopediya yo'nalishi

511-23-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq buzilishlari etiologiyasi, ularning kelib chiqish sabablari, buzilishlari ko'rinishlari, oldini olish va davolash choralari o'rganiladi. Nutq buzilishlari tatqiqotlarga ko'ra genetik, nevrologik, psixologik, va tashqi ekologik omillar ta'sirida yuzaga keladi. bu maqolada nutq buzilish sabab va choralari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Axborotning asosiy vositasi bu – til. Nutq insonning ijtimoiy faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Lekin ba'zi holatlarda nutqda buzilishlar paydo bo'lishi mumkin. Natijada insonlar jamiyatdan orqada qolishi mumkin. Buni oldini olish chora tadbirlari o'z vaqtida olib borilganda samarali natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Etiologiya, buzilish, nutq, og'zaki va yozma nutq, omil, broka, vernike, otorinolaringolog, nevrolog, nevrotopog, logoped, irsiy omil, organik omil, dislaliya, rinolaliya

Аннотация: В данной работе изучается этиология речевых нарушений, причины их возникновения, проявления нарушений, меры профилактики и лечения. Речевые нарушения, согласно исследованиям, возникают под влиянием генетических, неврологических, психологических и внешних экологических факторов.

Основным средством информации является язык. Речь занимает основное место в социальной деятельности человека. Однако в некоторых случаях могут возникнуть нарушения речи. В результате люди могут отстать от общества. Эффективный результат может быть достигнут при своевременном проведении

Ключевые слова: этиология, расстройство, речь, устная и письменная речь, фактор, брока, вернике, оториноларинголог, невролог, невропатолог, логопед, наследственный фактор, органический фактор, дислалия, ринолалия

Abstract: This article examines the etiology of speech disorders, their causes, manifestations, prevention, and treatment measures. According to research, speech disorders arise due to genetic, neurological, psychological, and external environmental factors. This article provides detailed information about the causes of speech disorders and measures to address them.

Language is the primary means of information. Speech plays a central role in a person's social activities. However, in some cases, speech disorders may occur. As a result, people may fall behind in society. Effective results can be achieved when timely preventive measures are taken.

Keywords: Etiology, disorder, speech, oral and written speech, factor, Broca, Wernicke, otorhinolaryngologist, neurologist, neuropathologist, speech therapist, hereditary factor, organic factor, dyslalia, rhinolalia

Nutq bu ijtimoiy aloqa vositasi hisoblanadi. Lekin bilamizki qadimgi ibtidoiy jamoa davrlarida insonlar bir-birlari bilan turli xil imo-ishoralar, “ma’noli harakatlar” va o’zgacha surat va tasvirlar orqali o’zaro muloqotda bo’lishgan. Nutq murakkab funksional jarayon sifatida uzoq yillar mobaynida ijtimoiy va tarixiy rivojlanish asosida shakllanib kelgan va ma’lum davrga kelib ma’noli nutqga aylangan. Nutqiy tizim bosh miya a’zolarining faoliyatiga asoslanadi. Ulardan har biri o’ziga xos vazifani bajaradi. Etiologiya termini grekcha so’zdan olingan bo’lib, (etio – sabab, logos – fan, o’rganish) sabablarini o’rganuvchi fan ma’nosini anglatadi. Nutq etiologiyasi tushunchasini ko’plab olimlar sharxlab

tibbiy fanlar bilan chambarchas bog’liq bo’lib ilmiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadordir. Nutq hosil bo’lishini markaziy va periferik nutq a’zolari tashkil etadi. Markaziy qismiga Broka va Vernike zonalari kiradi. Broka markazi bosh miya chap yarimsharining chap pastki peshona qismida joylashgan. Broka markazining vazifasi nutq hosil qilish, grammatik tuzilmalar yaratish va tovushlarni artikulyatsiya qilishga javob beradi. So’zlarning aniq talaffuz qilinishini va nutq intonatsiyasini boshqaradi. Broka markazi shikastlanishi natijasida turli xil nutqiy buzilishlar kelib chiqadi. Vernike bosh miya chap yarimsharning ustki chakka qismida joylashgan. Nutqni eshitish va tushunish so’z ma’nolarini bog’lash va talaffuz qilinayotgan so’zlarni analiz sintez qilishga mas’uldir, Nutqni mantiqiy va mazmunli shakllantirishini ta’minlaydi. Vernike markazi shikastlanganda bemor o’ziga aytilgan gapni tushunishda qiynchilikka duch keladi. Nutqni ravon, lekin noto’g’ri yoki mantiqsiz bo’lishi mumkin. Misol uchun tushunarsiz so’z va jumlar ishlatadi. Broka va Vernike markazlari o’zaro asab tolalari orqali bog’langan.

Nutq buzilishi etiologiyasi haqidagi tasavvurlar, shu muammoni o’rganishning barcha davrlarida, ular mohiyatini tushunishni ifodalaydi. Shuningdek, ma’lum davr va mualliflarning umumiy metodologik yo’nalishini ifodalaydi.

Nutq buzilishi etiologiyasida bosh miya jarohatlanishining “o’z o’rni” borligi eramizdan avvalgi 400 ming yil ilgari Gippokrat tomonidan aytib o’tilganligi aniq, va bunga haqiqiy ilmiy tasdiq 1861- yilda, fransuz shifokori Pol Broka tomonidan bosh miyada nutq markaziy markazi mavjudligi va bu markaz jarohatlanishi nutq buzilishini keltirib chiqarishi orqali isbotlab berilgan.

Nutq buzilishi etiologiyasi masalasi XX asrning 20-yillarida jadal suratda rivojlana boshladi. Bu yillarda tadqiqotchilar kelib chiqish sabablariga ko’ra nutq buzilishlarini tasniflashdilar. M.Ye Xvastev ilk bor nutq buzilishlari sabablarini ichki va tashqi omillarga ajratdi. Shu bilan birga u organik (anatomofiziologik, morfologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik va psixonevrologik sabablarini ajratib ko’rsatdi.

Organic sabablarga ko’ra homiladorlik davrida, tug’ruq paytida va tug’ruqdan keyingi bosh miyaning yaxshi rivojlanmasligi va jarohatlanishi, shu bilan birga nutq periferik organlarida turli xil organik buzilishlar kiritilgan. Organik buzilishlar markaziy (miyaning jarohatlanishi) va periferik sabablarga (eshituv organi jarohatlanishi, tanglay yoriqliklari va artikulyatsion apparatning boshqa morfologik o’zgarishlari) ajratilgan.

Funksional sabablarni M.ye Xvastev ,I P>Pavlovning ta'limoti orqali tushuntirin o'tadi. Bu ma'lumotlar markaziy nerv sistemasida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonining o'zaro munosabatining buzilishi haqida , M.Ye Xvastev bu orqali organik va funksional , markaziy va periferik sabablarning o'zaro munosabati mavjudligini ta'kidlaydi.

Psixonevrologik sabablarga u aqli zaiflikni, xotira, diqqat buzilishini va boshqa psixik jarayonlar buzilishini kiritgan. M. Ye Xvastev ijtimoiy-psixologik sabablarga-da katta e'tibor qaratgan va buning ostida atrof-muhitdagi turli xil yomon ta'sirlar yotganini ta'kidlab o'tadi.

Biologiya , embriologiya, nazariy tibbiyot sohalarida 10 yillikda qo'lga kiritilgan katta yutuqlar , tibbiy genetika, immunologiya va boshqa fanlarning erishgan yutuqlari nutq buzilishi etiologiyasi haqida chuqurroq ma'lumotlarga ega bo'lishga imkon beradi.

Nutq buzilish sabablari deganda – organizmga tashqi yoki ichki zararli omilning ta'sir etishi yoki yokida ularning o'zaro aloqasini tushunish nutq buzilishi xususiyatini aniqlaydi.

Demak , nutq kamchiligiga ega kishilar orasida yoki nutqiy chegaralangan muhitda tarbiyalanuvchi ilk yoshdagi bolalar nutqi rivojlanishidan orqada qoladi (kar-soqov ota onalar yoki yaqqol nutq kamchiligiga ega ota-onalar , uzoq muddat kasalxonada yotish , turli xil o'g'ir kasallik tufayli kontaktga kirishishning chegaralanganligi).

Nutq buzilishlari , ko'pincha erkak jinsiga mansub shaxslarda yuzaga keladi. So'nggi yillar tadqiqotlarida odam jinsiga qarab o'ng va chap (nutqiy) gemisferalar (yarimsharlar) rivojlanishida farq borligi ko'rsatib berilgan. Chap yarimsharlar asosan nutqiy funksiyani amalga oshiradi., o'ng yarimshar esa ko'ruv-fazoviy gnozisini amalga oshiradi.

Shunindek nutq buzilishlari etiologiyasi ko'p tomonlama ko'rib chiqilgan va olimlar tomonidan tasniflab berilgan. Nutq buzilishlari turlari kelib chiqish sabablariga ko'ra turlicha ko'rinishlarda uchraydi. Bu nutq kamchiliklari belgilariga qarab korreksion ishlar iolib boriladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslar bilan logoped ish olib boradi, lekin logoped ikkilamchi nuqsonni bartaraf etadi , asosiy xulosani nevrolog, nevroptolog belgilab beradi. Nuqson turiga qarab logoped stomatolog va otorinolaringolog bilan ham hamkorlik qilishi mumkin . masalan rinolaliya, organik dislaliya va boshqa nutq kamchikilarida ularning o'z vazifasi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ayupova M.Y Logopediya . Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent . “o'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti “. 2007.

Ya. Mo'minova, M Qahramonova . logopediya izohli lug'ati. Toshkent, “O'qituvchi “ , 1988

Asqarova, N “Nutq rivojlanishidagi buzilishlar” . Toshkent : Sharq nashriyoti. 2018

Altayeva, R.S “nutq rivoji va uni tiklash usullari” . Toshkent . Fan va texnologiyalar nashriyoti . 2021

Internet manbalar:

www.logopedia.su

www.nutqterapiya.uz